



O'ZBEKISTON
FANLAR AKADEMIYASI
TARIX INSTITUTI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI,
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR
AKADEMIYASI, QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI INSTITUTI
BUXORO INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI

**“TURKISTON TARAQQIYPARVARLARI MEROSI: TARIXIY TAJRIBA VA
MILLIY O‘ZLIK”**

**"НАСЛЕДИЕ ТУРКЕСТАНСКИХ ПРОГРЕССИСТОВ:
ИСТОРИЧЕСКИЙ ОПЫТ И НАЦИОНАЛЬНОЕ САМОСОЗНАНИЕ"**

**"TÜRKİSTAN CEDİTÇİLERİNİN MİRASI: TARİHSEL DENEYİM VE
ULUSAL KİMLİK"**

**“LEGACY OF TURKESTANI REFORMERS: HISTORICAL
EXPERIENCE AND NATIONAL IDENTITY”**

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY KONFERENSIYA

Buxoro shahri, 2024-yil 4-5-oktabr



BUXORO-2024

“TURKISTON TARAQQIYPARVARLARI MEROSI: TARIXIY TAJRIBA VA MILLIY O‘ZLIK” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY ANJUMAN DASTURIY QO‘MITA TARKIBI

1. **B.B. Ma‘murov** – Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais;
2. **G.R. Akramova** – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor v.b, rais muovini;
3. **H.T.Artikova** – Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, a‘zo;
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti “Milliy tarbiya mutafakkirlar,
4. **R.G. Safarova** – hamda jadidlarning pedagogik ta‘limotlari” ilmiy tadqiqot bo‘limi mudri, pedagogika fanlari doktori, professor, a‘zo
5. **D.I. Ro‘ziyeva** – Buxoro Innovatsiyalar universiteti rektori, professor, a‘zo
6. **U.A. Yesnazarova** – Al-Farobiy nomidagi Qozog‘iston milliy universiteti professori, a‘zo
7. **D.Yu. Nematov** – Yoshlar bilan ishlash, ma‘naviyat va ma‘rifat bo‘limi boshlig‘i, a‘zo
8. **E.M. Muxtorov** – O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, a‘zo;
9. **N.I. Davronov** – O‘quv - uslubiy boshqarma boshlig‘i, a‘zo;
10. **N. J. Yadgarov** – Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti dekani, a‘zo;
11. **A.Z. Sharipov** – Ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri, a‘zo;
12. **X.X. Raxmatova** – Ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti, f.f.d.(DSc), a‘zo.
13. **Z.I. Narziyev** – Ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti, f.f.f.d, a‘zo.
14. **X.M.Tojiboyeva** – Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti direktorining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari, pedagogika fanlari doktori, professor, a‘zo
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti “Milliy tarbiya mutafakkirlar,
15. **L.M.Qoraxonova** – hamda jadidlarning pedagogik ta‘limotlari” ilmiy tadqiqot bo‘limi mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD), a‘zo

MAHMUDXO`JA BEHBUDIY PUBLISISTIKASIDA MA`RIFATCHILIK, VATANPARVARLIK FAOLIYATI.

O`ktamova Mehriyo A`zamovna

Buxoro davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqola Behbudiyning hayoti va ijodini, ma`rifatparvarlik, vatanparvarlik g`oyalarini targ`ib qilishdagi harakatlarini tahlil qilinib, badiiy merosining jadidchilikda tutgan o`rni haqida so`z boradi.

**Kalit so`zlar.** Jadid, jadidlar, sho`ro tuzimi, mafkura, Behbudi, millat, vatanparvarlik, jadidchilik, ma`rifatchilik.

Ma`lumki, jadidlarning Turkiston ozodligi uchun kurash dasturida uch asosiy yo`nalish mavjud edi. Birinchisi - yangi usul maktablari tarmog`ini kengaytirish, ikkinchisi - umidli yoshlarni chet ellarga o`qishga yuborish va nihoyat, uchinchisi - turli ma`rifiy jamiyatlar tuzish hamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalar chop etish edi. Mazkur harakat maqsadlariga ko`ra, Vatan, millat va davr oldida turgan ulkan ijtimoiy-siyosiy, ma`naviy-ma`rifiy muammolarni Turkiston xalqlarini ma`rifatli qilish, ular hayotini qaytadan madaniylashtirish va zamonaviylashtirish yo`li bilangina hal etish mumkin edi. Bunday miqyosli va tarixiy vazifani tor doiralarga mansub yoki muayyan tabaqaviy qarashlarga asoslangan oqim hal qilolmasdi. Ushbu oqim o`zida yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari jamlagan bo`lib, ular yurtni obod va Vatanni mustaqil ko`rishni orzu qildilar va shu yo`lda fidoyilarcha kurashdilar. Ular turli ma`rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish, gazeta va jurnallarda chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurishni maqsad qilib qo`ydilar. Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi.

Jadid mualliflar maqsadlariga yetishda yangi jadid maktablarini ochish, xalqni savodli qilish, zamon bilan hamnafaslikni olib kirish maqsadida turli xil darsliklar yaratdilar. Mana shunday darsliklari orasida islom tarixi, islom odablariga bag`ishlangan kichik darslik va qo`llanmalar ham mavjud edi. Bunday an`anani jadidlarning o`zlari yaratgan emas va ular mintaqada

o'qitilib kelingan islom tarixiga oid darsliklarni qisqartirish, muxtasar holatga keltirish yo'lini tutdilar.

Jadid ma'rifatparvarlarining asarlari bir birlarinikidan bir oz bo'lsada farq qilishi tabiiy hol edi. Chunki ularning o'rtasida ham mintaqadagi an'analarni mustahkam tutgan, xorijiy tajribalarni qo'llab quvvatlagan vakillar mavjud edi.

Ma'rifat uchun birgina maktabning o'zi kifoya qilmaydi. Zamona va dunyo voqealari bilan tanshib bormoq kerak. Millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo'lmoq lozim. Millat uchun oyna kerak, toki unda o'z qabohatini ko'ra olsun.

Bu davrda ilm-ma'rifatni, maktab madrasalarni jo'shqin targ'ib qilish, ijtimoiy hayotning hamma sohalarida o'zgarish yasash uchun krashish o'laroq kun tartibiga chiqdi. Tabiiyki, jamiyatning keng qatlamlarida sodir bo'layotgan bu uyg'onish harakatining boshida ma'rifatparvar jadidlar turdilar. Ular yangicha tafakkur, yangi dunyoqarash shakllanishi uchun o'z ijodiy va amaliy faoliyatlari bilan kurashdilar. Adabiyot ana shu kurashda asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Professor B. Qosimov ta'biri bilan aytganda: "Bu adabiyot mohiyatan yangi adabiyot edi. Chunki u qarashlarni yangiladi, o'zlikni qaytardi". "Al-Isloh"da nashr etilgan adabiyot materiallari bu fikrni tasdiqlaydi.

1913-yildan Behbudiy matbuot ishlari bilan shug'ullanadi. Apreldan "Samarqand" gazetasini chiqaradi. Gazeta turkiy va forsiy tillarda, haftada ikki marta, dastlab ikki, so'ng to'rt sahifada chop etilgan. 45 ta soni chiqqandan keyin moddiy tanqislik tufayli chiqichi to'xtagan. O'sha yilning 20-avgustidan "Oyna" jurnalini chiqara boshlaydi. Behbudiy shu yillari nash rishlari bilan qizg'in shug'ullandi. "Nashriyoti Behbudiya" nomi bilan o'z xususiy nashriyotini ochdi. Fitratning "Bayonoti sayyohi hindi" asarini 1913-yili tarjima qildiradi va nashr qiladi. Turkiston xaritasini tuzib bosmadan chiqaradi. Kutubxonani yo'lga qo'ydi.

Behbudiy arab mamlakatlariga sayohatlar qiladi. Sayohat xotiralari g'oyat muhim bo'lib, Behbudiy ularni "Oyna" juranlida bosadi. Bu xotiralar ham ma'rifiy, ham adabiy-estetik jihatdan nihoyatda muhim. Ular adabiyotimizdagi ana'anaviy tarixiy-memuar janrining XX asr boshidagi o'ziga xos namunasi. Muallif bu asarlarda yo'l taassurotlariga, mashhur yoxud oddiy kishilari bilan uchrashuvlarining ibratli tomonlariga keng o'rin beradi. Qaysi shaharga bormasin, uning tarixiy obidalari, u yerdan chiqqan buyuk zotlar haqida ma'lumotlar to'playdi, turli tuman millatlar, ularning urf-odatlarini, turmush madaniyati bilan qiziqadi. Qishloqdagi

dehqonchilikdan tortib, shaharlardagi eskalator ("osonsur")gacha uning e'tiboridan chetda qolmaydi. Ayniqsa, din, e'tiqod masalalariga katta ahamiyat beradi. Qadimiy muqaddas obidalar, Rasululloh poyqadami tekkan qutlug' dargohlar, xususan, Quddusi sharifdagi mashhur Masjidal – Aqso ziyoratidan nihoyasiz zavq-shavqqa to'ladi. Sajdaga bosh qo'yarkan, dilining tub-tubidan Olloh ishtiyoqi qalqib chiqadi. "Oh, na ruhoniy holatlar, na laziz vajdangiz ubudiyatlari, na ashkrez noz-niyozlar... Nuroniylar, fusunkor, porloq moziykim, aning asari qudsiyat samari ming bu qadar sana so'ngra bizni mahviyat darajasida kelturar", - deb yozadi u.

Muallif Ollohg'a nido qiladi: "Iloho, u aziz va faol bandalaring hurmatig'a bizg'a basiriyat ber. Eshitar quloq anglar aql ber... Ey Ollohi azim-ush shon. Bu magar sening ga'zabingmidur. Avf et, biz insonlarni. Hidoyat et. Yer yuzinda sulh va silohi umumiy ato ayla. Insonlarg'a insoniyat ber. Zolimlarni qahr et, mahv bo'lsun zulm. Yashasun adolat va haqqoniyat, omin..."

"O'zAS" haftaligi Ingeborg Baldaufning mazkur xotiralarning olmoncha tarjimasini munosabati bilan yozilgan "Mahmudxo'ja Behbudiy Falastinda" (1993, №21) maqolasini e'lon qildi. Muallif unda Behbudiy kuzatishlarining o'ziga xosligi haqida yozgan, adib qalbini o'rtagan eng katta dard – erk va ma'rifat ekanligini aytgan. Darhaqiqat "Xotiralar"dagi ma'rifiy ruh, iztirob to'la fikr-mulohazalar, muallifning tashna nigohi sizni befarq qoldirmaydi. Xususan, Vatan tuyg'usi ifodasi uchun bugun siz bilan birga haddan tashqari yaqin qilib qo'yadi. U Quddusi sharifdagi Hazrati Dovud maqbarasini, Bibi Maryam va Hazrati Iso kalisolarini ziyorat qilar ekan, toshkentlik yosh bir attorga duch keladi. "Do'konig'a bir oz o'lturdik, - yozadi Behbudiy, - mamlakatdan so'radi. Qo'lig'a bir necha nusxa "Oyna" va "Turkiston xaritasini" berdim. Ahli savod ekan. Toshkand shahrini ko'rsatdim. Beixtiyor xarita ustindagi Toshkandni o'pib, ko'ziga surtdi. ("Hubbul vatani min al-iymon"). Xususan, vatan va ahli diyorning qadri musofiratga ma'lum bo'lur. "Oyna" jurnali ma'rifat va madaniyat tarqatishga juda katta xizmat qildi. Unda millat va uning haq-huquqiga, tarixiga til-adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Ayniqsa, til masalalari muharrirning hamisha diqqat markazida bo'lgan. Behbudiy millatning taraqqiysi uchun bir necha til bilishni shart hisoblanadi. Masalan, jurnalning 1913-yil avgust, birinchi – nishona sonidayoq "Ikki emas, to'rt til lozim" degan maqola bilan chiqqan edi.

Behbudiy bir qator darsliklar yozdi. Bular: 1) “Muntaxabi jug’rofiyayi umuniy” (“Qisqacha umumiy geografiya”); 2) “Kitobatul atfol” (“Bolalar maktublari”); 3) “Muxtasar tarixi islom” (“Islomning qisqacha tarixi”); 4) “Madxali gug’rofiyayi umroniy” (“Aholi geografiyasiga kirish”); 5) “Muxtasar” jug’rofiyayi Rusiy” (“Rusiyaning qisqacha geografiyasi”).

Shulardan biri “Mutaxabi jug’rofiya umumiy” haqida fikr yuritamiz. Asarning to’la nomi “Kitobi muntaxabi jug’roifiyani umumiy va namunai jug’rofiya”. 1905-yil 24-avgustda Sank-Peterburg senzurasidan ruxsat olinib, 1906-yil Samarqandda G.I.Demurov matbaasida chop etilgan. 106 sahifadan tashkil topgan. Muallif bu “qadim fan”ga taalluqli “turkey, arabiy, forsiy, rusiy lug’atlarga tasnif bo’lgan o’ttiz qadar qadim va jadid kutub va rasoili jug’rofiya, hay’ati zijoziy, tarixiy, tabibiy” lardan va yana juda ko’p turli-tuman ma’lumot-manbalardan foydalanib yozganni qayd qiladi.

XX asr boshlaridagi Yevropa davlatlarida harakatda bo’lgan uch siyosiy tuzumdan biri monarxiya bo’lib, unda saltanat egasi bo’lgan kishining xususiy qrashlari ustuvor ahamiyatga ega.

Behbudiy tavsifidagi ikkinchi davlat tuzumi, bugungi atama bilan aytganda, parlamentar respublikadir. Davlat qurilishining bu turida podshoh yo saltanat rahbarining mavjud bo’lishiga qaramay, parlament yo millat majlisi uning ra’yiga emas, aksincha, u shu tashkilot a’zolarining ra’yiga qaraydi va uning qonunlariga bo’ysunadi.

Behbudiyning siyosiy publitsist sifatidagi faoliyati, ayniqsa, “Oyna” jurnali va “Samarqand” gazetasini nashr etgan 1913-1915-yillarda kuchaydi. Bu vaqtda u nafaqat Turkiston xalqlari hayoti, balki xorijiy Sharq mamlakatlaridagi ahvolni ham yaxshi bilan va ularni o’zaro qiyoslagan holda, gazeta va jurnalning g’oyaviy yo’nalishini belgilab olgan va aniq maqsad bilan harakat yurgizayotgan edi. Behbudiy muharriri bo’lgan bu nashrlarning g’oyaviy yo’nalishi esa, birinchi navbatda, xalq ommasining og’ir iqtisodiy va madaniy sharoitda yashashiga sabab bo’lgan ba’zi bir urf-odatlardir.

Behbudiy o’zining ana shu ruhdagi taklif va istaklarini bayon etish asnosida o’z ma’rifatparvarlik dasturini bizga izchil bir tizim tarzida taqdim etadi. Ular:

1. Bolalarni musulmon, usuli jadid, rus-tuzem maktablari va gimnaziyalarda o’qitish;
2. Eski madrasa, mozoru masjid va maktablarning “shikast-rext”larini ta’mirlash;

3. Bolalarni Sharq mamlakatlari va Rusiyadagi dorilfunun va dorilsanoatlarga o'qishga yuborish;
4. Bolalarni Rusiya hukumati maktablarida o'qitish; buning uchun har bir bolani ikki yil davomida ruschaga o'qitish va tarbiya qilish; bu ikki yil uchun to'lanajak 600 so'm miqdoridagi pulni to'y-ma'arakalar uchun jamlangan mablag'dan olish;
5. Bolalarni tarbiya qiladigan pansionlar ochish; bu tarbiyaxonalarining zamonaviy, milliy va diniy ruhda bo'lishiga erishish;
6. Bu tarbiyaxonalarni ochish va bolalarni hukumat maktablariga tayyorlash uchun "Nashri maorif", yoxud "Jamiyati xayriya", yo "Jamiyati atfol" singari jamiyatlarni ochish;
7. Bu jamiyatlar yordamida va tegishli yuqori malakali o'quv yurtlarida o'qitish orqali huquqshunos, muhandis singari mutaxassislar bilan birga, "zamona maktabdori", millat homiysi va xodimi, "Davlat Dumasig'a" deputat, milliy sanoatimizni isloh eta biluvchi, texnik, tijorat va banklarda ishlay oladigan, shahar dumalarida va umuman, Turkistonda ochilajak idoralarda ishlaydigan mutaxassislarni yetishtirishdir.

Muallif bu qadim otalar yurtini unda yashab turgan barcha qon-qarindosh millatlarning birligi, hamkorligi bilangina saqlab qolish mumkinligini teran anglaydi. Butun vujudi bilan Turkistonni birlikka chorlaydi. "Bovurlar! – deb yozadi qozoq birodarlariga ochiq xatida, - bilingki, hozirda Turkistondagi barcha xalqlar uchun muxtoriyat e'lon qilindi va siz bilingki, haq olinur, lekin berilmas. Inchunin, muxtoriyatda olinur, lekin berilmas. Ya'ni muxtoriyatni Turkiston bolalarining o'zi birlashib, g'ayrat ila olurlar. Albatta, boshqalar tarafidan berilmas. Boshqalarning qo'lidan kelsa, bermaslar. Biz bo'shlik qilsak va Turkistondagi xalqlar birlashib, muxtoriyatimizni ham yo'q qilurlar. Bul, albatta, shundaydur va bul so'zga hech kim ixtilof qilolmaydur... Endi ishlar shu holda ekan, biz hammamiz, ya'ni qirg'iz, qozoq, o'zbek, turkman, arab, fors, xullas, Turkistondagi, Qozog'istondagi va Turkmanistondagi barcha musulmonlar va hamda mundagi yahudiy va xristianlar birlashib, ittifoq ila shu muxtoriyatning amalga kelishiga sa'y va ehtirom etmog'imiz lozimdur...

Chirog'larim! Boshqa xalqlar, masalan, serblar, italyanlar, armanlar, slavyanlar, polyaklar va boshqalar hatto dunyoning u bir uchidagi qarindoshlari ila birlashur ekanlar, boshqa katta va quvvatli davlatlarga tobe' bo'lub, yutilub, hatto tilini yo'qotgan o'z jinsdoshlarini ajratib olib, o'z birlashmoqg'a jon va kuchlarini sarf etar ekanlar, biz o'z ichimizdagi

qarindoshlarimizdan ayrilsak, uyatdur, axmoqlikdir. Turk tomurig'a bolta urmoqlikdir".

Bugun Behbudiy kabilar muqaddas tutgan yurt ozod va mustaqil bo'ldi. Ular jon fido etgan istiqloq avlodlarga nasib etdi. Millat va Vatan mustaqilligi yo'lida fido bo'lganlar esa shu Millat va Vatan umri qadar boqiydirlar. Mahmudxo'ja Behbudiy XX asr bo'sag'asidagi Turkiston ijtimoiy-siyosiy harakatchiliginng en gyirik namoyandasi, yangi davr o'zbek madaniyatining asoschisidir. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, mustaqil jumhuriyat g'oyasining yalovbardori, yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o'zbek dramaturgiyasini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist. U tariximizning g'oyat og'ir va murakkab bir davrida yashadi.

Biz Behbudiy ijodiy merosining milliy uyg'onish davri adabiyotida tutgan o'rni va hamiyatini atroflicha tahlil qilib quyidagi xulosalarga keldik:

1. XX asr birinchi choragi Turkiston ijtimoiy hayotida jadid adabiyoti o'ziga xos mavqega ega bo'ldi. Jadidchilik harakatining g'oya va fikrlari jadid adabiyoti vakillarining asarlarida o'z ifodasini torgan.

2. Jadidchilik va uning o'ziga xos g'oyalari Behbudiy adabiy merosida aks etgan.

3. Jadid maktablari jadidchilikning asosiy poydevoridir.

4. Jadid matbuoti yangi o'zbek adabiyotining beshigidir.

5. Behbudiyning ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib qilishdagi harakatlari beqiyosdir.

6. Behbudiy birinchi o'zbek dramaturgiyasining asoschisi.

7. Behbudiyning badiiy merosi yosh avlodni vatanparvarlik, elsevarlik ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir.

REFERENCES

1. Sharipov Rustam. "Turkiston jadidchilik harakati tarixidan". O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Toshkent Davlat yuridik instituti. Toshkent.: "O'qituvchi" 2002.

2. "Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy". Yoshlar ishlari agentligi. Toshkent.: Yoshlar nashriyot uyi- 2022.

3. "Milliy ozodlik harakatlarida jadidchilik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari" Gulboyev Husan Shokir og'li.

4. muhammadjonova l., jadid mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. -t.: o'zmu. 2007.